

PIRLS TADQIQOTLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR TAYYORLASHDA MATNLARNING AHAMIYATI

Axmedova Shahnoza

Buxoro davlat pedagogika institute Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang'ich ta'lim) magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini aniqlash bo'yicha xalqaro baholash dasturi(PIRLS) haqida ma'lumotlar berilib, tadqiqot uchun matnlar tanlash va ular asosida topshiriqlar tayyorlash tartibi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, tadqiqot matnlari, tadqiqot uchun topshiriqlar.

Аннотация. В данной статье представлена информация о международной оценочной программе определения читательской грамотности учащихся начальных классов (PIRLS), а также рассказывается о порядке отбора текстов для исследования и подготовки заданий на их основе.

Ключевые слова: читательская грамотность, международные программы оценки, PIRLS, исследовательские тексты, исследовательские задания.

Annotation. This article provides information about the international assessment program for determining the reading literacy of primary school students (PIRLS), and talks about the procedure for selecting texts for research and preparing tasks based on them.

Keywords: reading literacy, international assessment programs, PIRLS, research texts, research assignments.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarning bilim saviyasini oshirish hamda ta'lim muassasalarida jahon ta'lim standartlari darajasidagi o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da hamda 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida xalq ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar (PIRLS, PISA, TIMSS va boshqalar)da O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta'minlanishi ta'kidlab o'tilgan.

PIRLS (inglizcha: Progress in International Reading and Literacy Study) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash dasturi. Ushbu

tadqiqot har besh yilda bir marta o'tkaziladi. Hozirga qadar PIRLS sinovlari 5 marta: 2001, 2006, 2011, 2016, 2021-yillarda o'tkazilgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonning 4-sinf o'quvchilari ilk bora 2021-yilgi sinovlarda ishtirok etdi.

PIRLS o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Dunyo davlatlari PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- dunyo miqyosida ta'lim tizimidagi yutuqlarni muntazam kuzatib boorish;
- yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish ;
- ta'lim tizimidagi zaif nuqtalarni belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish;
- PIRLS haqidagi ma'lumotlarni tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish, bilishga bo'lган qiziqishini o'stirish hamda ularda fikrlarni erkin, ochiq va mazmunli ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan

talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hisoblanadi. PIRLS tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnni tushunishga va matndan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihamlar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratiladi.

Tadqiqot matnlari turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lган mamlakatlar uchun 400-500 ta, ePIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos bo'lishi, ayrim madaniyat va an'analarga juda xos bo'lган mavzulardan chetlashgan bo'lishi, shuningdek, qiziqarli bo'lishi hamda o'quvchiga tanish bo'lmasligi lozim.

O'quvchilarni PIRLS tadqiqot-sinovlariga tayyorlashda, avvalo, maktab darsliklarida keltirilgan matnlar ustida ishlashga o'rgatish lozim. Shu maqsadda quyida 3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidan o'rin olgan bir hikoya matni yuzasidan PIRLS topshiriqlari darajasidagi namunaviy topshiriqlar tayyorlaymiz.

QO'RQOQ BUG'U

Shukrullo Abdullayev

O'rmondagi barcha bug'ular yig'ilib, majlis o'tkazibdi.

- Qachongacha bo'rilarga yem bo'lamiz?! – debdi jahl bilan ularning biri. – Kechagina eng kuchli, navqiron bug'uni quvlay-quvlay charchatib, qulatishibdi. Endi bunga chek qo'yaylik. Kuchimiz yetmasa, hiyla ishlataylik. Men hammasini o'ylab qo'yanman.

Shunday qilib, u o'z rejasini to'dadoshlariga aytib beribdi. Rejaga ko'ra, u boshiga ajdar niqobini kiyibdi. Ustiga yo'lbarsning yo'l-yo'l terisini yopibdi. Tuyoqlariga ayiqning o'tkir tirnoqlarini bog'labdi. U shu qadar qo'rinchli ko'rinishga kelibdiki, hatto ba'zi bug'ular qo'rqb, hushidan ketib qolibdi.

- Endi bo'rilar meni ko'rishi bilan qo'rquvdan orqalariga qaramay qochishadi, - debdi u.

- Ha, faqat ayiqdek o'kirishni ham o'rganishing kerak, - deb maslahat beribdi bug'ularning biri.

Bir necha mashqdan so'ng bug'u o'kirishni ham o'rganib olibdi.

Ko'p o'tmay, ularga bo'rilar hujum qilibdi. Barcha bug'ular qochib ketibdi, faqat niqobli bug'u qolib, bo'rirlarni kutibdi. Uni ko'rgan bo'rilar joylarida taqqa to'xtashibdi. Ovozlari chiqmay, past ovozda g'ingshiy boshlashibdi. Ba'zilari dumlarini qisib, uvullab ham yuboribdi .

Niqob ostidagi bug'u ham hech bo'rilarga bunday yaqin kelmagan edi. Ularning cho'g'dek yonib turgan ko'zlarini ko'rib, yuragi "shuv" etibdi. Oyoqlari qaltirabdi. Shu tobda ayiq kabi o'kirish kerakligini eslabdi. U bor kuchi bilan "o'kiribdi". Biroq qo'rqb ketgani uchun ayiqning emas, bug'uning hadik to'la beo'xshov ovozi eshitilibdi. Uning aslida oddiy bug'u ekanini sezib qolgan bo'rilar sardori:

- G'ajib tashlanglar buni! – deya qichqiribdi.

Barcha bo'rilar bug'uga tashlanishibdi.

Bug'u esa boshidagi ajdar niqobini, ustidagi yo'lbars po'stinini, oyoqlaridagi ayiq tirnoqlarini uloqtirib, jon talvasasida qochib qolibdi.

Qissadan hissa shuki, niqob kiyish bilan hech kim botir bo'lib qolmaydi. Jasurlik kishining yuragida bo'ladi[1:33].

Topshiriqlar

1. Bug'ularning majlisi nima haqida edi?

- A. qishga ozuqa to'plash
- B. bug'ular sardorini tayinlash
- C. bo'rillardan himoyalananish
- D. o'rmonni tark etish

2. Bug'uning rejasiga ko'ra, u qo'rinchli maxluqqa aylanishi uchun nimalarni kiyib oldi? Ketma – ketlikda yozing.

Javob:

3. Bo'rilar nega bug'uning hiylasini bilib qolishdi? Fikringizni dalillash uchun hikoyadan ikkita misol keltiring.

Javob:

4. Bug'ular bo'rilar hujumidan himoyalananish uchun qanday yo'l tutushlari kerak edi? Fikringizni asoslab bering.

Javob:



5. Sizningcha, jasur odam qanday xislatlarga ega bo'ladi? Qo'rqoq odam-chi?

Javob:

6. Matnni qismlarga ajrating va quyidagi sarlavhalarni qismlarga mos ravishda ketma-ketlikda joylashtiring.

- Bug'uning rejası

- Tog'dagi hujum

- Xulosa

- O'rmondagı majlis

- Niqob ostidagi qo'rquv

7. Lug'at ishi! Matnda keltirilgan quyidagi so'z va iboralarning izohini yozing.

Chek qo'yish –

Navqiron –

To'da –

Shu tob –

O'kirmoq –

Orqasiga qaramay qochish –

Yuragi "shuv" etmoq –

8. Matndan quyidagi so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlarni toping va yozing.

Nima?

Qanday?

Nima qilibdi?

9. Ushbu hikoyadan chiqargan xulosangizni yozing.

Javob:

Darslikdan o'rin olgan har bir matn ustida ishslash, uni tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish, matndan olingan ma'lumotlarni amaliy tajribada qo'llash o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshiradi, shuningdek, ularda keng dunyoqarash elementlari shakllanishiga turtki bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston o'quvchilarining xalqaro baholash tadqiqotlari sinovlarida ishtirot etishi ularni dunyo miqyosida fikrlashga o'rgatish hamda o'qish savodxonligini oshirishga, ta'lim sistemasidagi kamchiliklarni aniqlashga va ularni bartaraf etishga, shu bilan birga O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Azimova A., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Ro'zmetova Z. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik(I qism). – Toshkent: "Sharq", 2022. – B. 33.

Internet resurslari:

1. <http://uz.m.wikipedia.org>

2. <http://zenodo.org>

3. <http://cyberleninka.ru>